BOSHLANG‘ICH SINFLARDA SUN’IY INTELLEKT ASOSIDA AXBOROT MATNLAR USTIDA ISHLASH METODIKASI: ADABIYOTLAR TAHLILI

Faxritdinova Shoira
Jizzax viloyati Zomin tumani 29-umumiy o‘rta ta’lim maktabi ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.22918177

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini axborot matnlari bilan ishlashga o‘rgatish masalasi hamda bu jarayonga sun’iy intellekt texnologiyalarini tatbiq etish borasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar tahlil qilinadi. Mahalliy va xorijiy manbalar qiyoslanib, sohaning qay darajada o‘rganilganligi, olimlar qanday yondashuvlarni taklif qilganligi va hozirgacha ochiq qolayotgan masalalar aniqlanadi. Bu tahlil boshlang‘ich ta’limda axborot matnlar ustida ishlash metodikasini sun’iy intellekt asosida takomillashtirishga qaratilgan tadqiqot uchun nazariy zamin yaratadi.
Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, axborot matn, sun’iy intellekt, o‘qish savodxonligi, adaptiv ta’lim, matn bilan ishlash ko‘nikmalari,PIRLS,TIMSS

Аннотация. В данной статье анализируется проблема обучения учащихся начальных классов работе с информационными текстами, а также научные исследования, посвящённые внедрению технологий искусственного интеллекта в данный процесс. Сопоставляются отечественные и зарубежные источники, определяется степень изученности данной области, рассматриваются подходы, предложенные учёными, и выявляются вопросы, которые до настоящего времени остаются открытыми. Проведённый анализ создаёт теоретическую основу для исследования, направленного на совершенствование методики работы с информационными текстами в начальном образовании на основе технологий искусственного интеллекта.
Ключевые слова: начальное образование, информационный текст, искусственный интеллект, читательская грамотность, адаптивное обучение, навыки работы с текстом, PIRLS, TIMSS

Abstract. This article analyzes the issue of teaching primary school students to work with informational texts and examines scientific research on the application of artificial intelligence technologies in this process. Local and international sources are compared to determine the extent to which the field has been studied, to explore the approaches proposed by scholars, and to identify issues that remain unresolved. This analysis provides a theoretical foundation for research aimed at improving methods of working with informational texts in primary education through the use of artificial intelligence technologies.
Keywords: primary education, informational text, artificial intelligence, reading literacy, adaptive learning, text processing skills, PIRLS, TIMSS.

KIRISH. Bugungi kunda maktablarda bolalar ko‘proq badiiy asarlardan ko‘ra, jadval, e’lon, ko‘rsatma, sxema, qisqa ma’lumot xarakteridagi matnlarga duch kelayotganligini ko‘rishimiz mumkin.Xalqaro baholash dasturlari PIRLS, TIMSS natijalari ham shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilar badiiy matnni his qilishda emas, balki aynan axborot matnidan kerakli ma’lumotni topib, uni tahlil qilib, xulosa chiqarishda qiynaladi. Shu sababli axborot matnlari bilan ishlash boshlang‘ich ta’limning alohida yo‘nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Shu bilan bir qatorda,bir vaqtning o‘zida ta’lim tizimiga sun’iy intellekt

texnologiyalari jadal sur'atlarda kirib kelmoqda va bu texnologiyalar orqali o'quvchilarning matnlar ustida ishlash,har bir matnga qanday munosabatda bo'lishini kuzatish, unga individual topshiriq berish imkonini yaratmoqda. Bugungi kunda keng o'rganilayotgan bu ikki yo'nalish ya'ni axborot matnlari bilan ishlash va sun'iy intellekt hozirgacha bir-biridan alohida holda o'rganilgan.Ushbu maqolaning maqsadi shu ikki sohadagi tadqiqotlarni bir-biriga taqqoslab, ular kesishgan nuqtada qanday bo'shliq qolganini ko'rsatishdir.

Axborot matnlar bilan ishlash muammosining pedagogik adabiyotlarda yoritilishi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini matn bilan ishlashga o'rgatish masalasi respublikamiz va xorijiy olimlar tomonidan uzoq yillardan beri o'rganib kelinadi. M.A.Tursunova o'z tadqiqotida ona tili va o'qish savodxonligi darsliklaridagi matnlarda uchraydigan iboralarni tushuntirish metodikasiga alohida to'xtaladi va bolaning so'z boyligi qanchalik boy bo'lsa, u matnni shunchalik chuqur idrok etishini ta'kidlaydi.[1] Boshqa bir tadqiqotda matn ustida ishlash orqali o'quvchi nutqi va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish masalasi ko'tarilib, matn bilan ishlashning faqat o'qish texnikasini emas, balki fikrlash faoliyatini ham shakllantirishi asoslab beriladi. Xorijiy olimlardan Kendra M. Hall va Brenda L. Sabey o'zlarining "Focus on the Facts: Using Informational Texts Effectively in Early Elementary Classrooms" nomli maqolasida boshlang'ich sinflarda axborot beruvchi matnlardan samarali foydalanish bolalarning dunyo haqidagi bilimlarini boyitishi va kengaytirishi, shuningdek, axborot asrida muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan muhim ko'nikmalarni shakllantirishi mumkinligini ta'kidlagan.[2]Ushbu maqolada bolalarning axborot beruvchi matnlardan foydalanish va ularni tushunish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi, ilmiy tadqiqotlarga asoslangan bir qator o'quv mashg'ulotlari taklif etiladi.Sent-Jon Fisher universiteti olimi Karli Smit o'zining "The Importance of Background Information When Reading Informational Text in the Primary Classroom" nomli tadqiqotida oldindan mavjud bo'lgan bilimlarning axborot beruvchi matnlarni o'qish va tushunishga ta'sirini o'rgangan.Ushbu tadqiqotda axborot beruvchi matnlar janrini tushunish uchun ushbu matnning mazmuni va janriga oid oldindan mavjud bilimlar muhim ahamiyatga egaligi ta'kidlangan.[3] Tadqiqotda bog'cha yoshidagi bolalarning axborot beruvchi matnlar bilan qanday ishlagani hamda oldindan mavjud bilimlarning ularning matnni tushunishiga qanday ta'sir ko'rsatgani tahlil qilingan hamda ma'lumotlar baholash jarayonlari, kuzatuv qaydlari va so'rovnomalar orqali to'plangan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bog'cha yoshidagi bolalar nafaqat axborot beruvchi matnlar orqali yangi narsalarni o'rganishga qodir, balki ular ushbu janrdagi matnlarni o'qishdan zavq ham oladilar. Ushbu tadqiqot zamonaviy boshlang'ich sinf darslarida axborot beruvchi matnlardan foydalanish muhimligini alohida ta'kidlaydi. Mavjud ilmiy-metodik manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, ta'lim jarayonida axborot matnlar bilan ishlash, o'quvchilarning matnni tushunish va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish hamda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish masalalari turli yo'nalishlarda tadqiq etilgan. Biroq boshlang'ich ta'lim sharoitida sun'iy intellekt imkoniyatlarini axborot matnlar bilan ishlash jarayoniga metodik jihatdan tizimli integratsiya qilish, mazkur jarayonni o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlariga moslashtirish hamda uning samaradorligini maxsus mezonlar asosida baholash masalalari yetarlicha ishlab chiqilmagan.

---

[1] Tursunova M.A. Ona tili va o'qish savodxonligi darsligida matnlarda keltirilgan iboralar izohi haqida metodik tavsiyalar. — 2022.

[2] Focus on the Facts: Using Informational Texts Effectively in Early Elementary Classrooms Kendra M. Hall1,2 and Brenda L. Sabey1. Early Childhood Education Journal, Vol. 35, No. 3, December 2007 (2007) DOI: 10.1007/s10643-007-0187-2

[3] Carly Smith St. John Fisher University "The Importance of Background Information When Reading Informational Text in the Primary Classroom" (2012). Education Masters. Paper 220.

Sun’iy intellektning ta’lim jarayoniga tatbiq etilishi bo‘yicha xorijiy tadqiqotlar. Xorijiy va mahalliy adabiyotlarda sun’iy intellektning ta’limdagi o‘rni ancha keng va tizimli tarzda yoritilgan. Ta’limda sun’iy intellekt imkoniyatlari va cheklovlarini tahlil qilgan tadqiqotchilar bu texnologiyaning eng katta afzalligi sifatida har bir o‘quvchiga alohida yondashish, ya’ni uning xato qilish tezligi, tushunish sur’ati va qiziqishlariga qarab topshiriqlarni moslashtirish imkoniyatini ko‘rsatishadi[4].Bundan tashqari, ta’lim tizimidagi imkoniyat va muammolarni o‘rgangan boshqa tadqiqotlarda ham sun’iy intellektning nazorat, baholash va prognoz qilish funksiyalari alohida ajratib ko‘rsatiladi hamda sun’iy intellekt o‘qituvchining o‘rnini bosishi mumkin emasligini ta’kidlaydi[5]. Ta’limda sun’iy intellektdan foydalanishning imkoniyatlari haqidagi umumlashtiruvchi tahlilda esa asosiy urg‘u adaptiv ta’lim traektoriyasiga, ya’ni har bir bolaga o‘ziga xos yondashuv g‘oyasiga qaratiladi[6].

E’tiborli jihati shundaki, bu ishlarning aksariyati o‘rta maktab yoki oliy ta’lim bosqichiga qaratilgan, boshlang‘ich sinf yoshiga xos xususiyatlar ya’ni bolaning diqqatini uzoq ushlab turolmasligi, mustaqil ishlash ko‘nikmasining hali shakllanmaganligi, ekrandan o‘qishning yosh jihatidan cheklovlari unchalik hisobga olinmagan.

So‘nggi ikki-uch yilda O‘zbekistonda ham boshlang‘ich ta’limga sun’iy intellektni tatbiq etish mavzusida ishlar paydo bo‘la boshladi. Z.Saparova sun’iy intellekt texnologiyalarining boshlang‘ich ta’lim tizimidagi istiqbollarini o‘rganar ekan, bu texnologiyalar o‘qituvchining kundalik ish yukini yengillashtirish bilan bir qatorda o‘quvchida mustaqil fikrlash va ijodkorlikni ham rivojlantirishi mumkinligini ko‘rsatadi, biroq buning uchun mavjud metodik cheklovlarni bartaraf etish zarurligini alohida ta’kidlaydi [7]. Boshlang‘ich ta’limda sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklariga bag‘ishlangan yana bir ishda ham xorijiy tajriba tahlil qilinib, sun’iy intellekt yordamida har bir bolaning individual o‘quv yo‘lini yaratish g‘oyasi ilgari suriladi.

Yuqoridagi manbalar o‘zaro bir-biri bilan taqqoslansa, uchta aniq qatlam ko‘zga tashlanadi. Birinchisi — boshlang‘ich sinfda matn bilan ishlash metodikasi bo‘yicha boy an’anaviy tajriba, biroq bu tajriba asosan badiiy matn va matnli masalaga qaratilgan, sof axborot matlari ya’ni jadval, e’lon, yo‘riqnoma, infografika kiabilar alohida obyekt sifatida deyarli o‘rganilmagan. Ikkinchisi — sun’iy intellektning ta’limdagi imkoniyatlari haqidagi xorijiy nazariy baza, biroq u ko‘proq o‘rta va oliy ta’lim tajribasiga tayanadi. Uchinchisi — mahalliy tadqiqotchilarning sun’iy intellektni boshlang‘ich sinfga olib kirish bo‘yicha ilk urinishlari, biroq bu ishlar hali umumiy tavsiya darajasida qolgan va sinovdan o‘tkazilgan metodik tizim sifatida taklif etilmagan.Shu uch qatlamning kesishgan nuqtasida bo‘shliq paydo bo‘ladi: boshlang‘ich sinf o‘quvchisini aynan axborot matni bilan ishlashga o‘rgatadigan, buning uchun sun’iy intellekt vositalarini qanday va qay bosqichda qo‘llash kerakligini ko‘rsatadigan, yosh xususiyatlarini hisobga oladigan yaxlit metodika hali ishlab chiqilmagan. Mavjud ishlarning aksariyati yo texnologiyaning umumiy afzalliklarini sanab o‘tish, yoki metodikani texnologiyasiz tavsiflash bilan chegaralanadi. Ana shu bo‘shliqni to‘ldirish — mazkur tadqiqotning asosiy vazifasi bo‘lib qolmoqda.

XULOSA. O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, boshlang‘ich sinflarda axborot matnlari bilan ishlash va sun’iy intellekt texnologiyalari mavzulari alohida-alohida yetarlicha

[4] Holmes W., Bayne S., Luckin R. Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning. — 2019.
[5] Choriyev I. va boshq. Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonlarini sun'iy intellekt algoritmlari asosida boshqarish .2024.
[6] Swan K., Cambridge D., Lehman J.D. Artificial Intelligence and Higher Education: Opportunities and Challenges. — 2019.
[7] Saparova Z.U. Sun'iy intellekt texnologiyalarining boshlang'ich ta'lim tizimida qo'llanish istiqbollari ,2025.

o‘rganilgan bo‘lsa-da, ular kesishgan nuqtada — ya’ni sun’iy intellekt yordamida axborot matnini o‘rgatish metodikasi ilmiy bo‘shliq sifatida saqlanib qolmoqda. Mavjud mahalliy tadqiqotlar ko‘proq umumiy xarakterdagi tavsiyalar bilan chegaralangan, xorijiy tajriba esa aynan boshlang‘ich sinf yoshiga moslashtirilmagan. Bu holat boshlang‘ich sinflarda sun’iy intellekt asosida axborot matnlar ustida ishlash metodikasini ishlab chiqish va sinab ko‘rish zaruratini yana bir bor asoslaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Tursunova M.A. Ona tili va o‘qish savodxonligi darsligida matnlarda keltirilgan iboralar izohi haqida metodik tavsiyalar. - 2022.
2. Amirova A. Chet tillarini o‘rganish metodikasida sun’iy intellektning samaradorligi: O‘zbekiston va xalqaro tajriba- 2025.
3. Xolmamatova M. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga matnli masalalarni o‘rgatishning pedagogik asosi-2024.
4. Boshlang‘ich ta’limda TIMSS tadqiqotlari uchun matnli masalalar -2023.
5. Holmes W., Bayne S., Luckin R. Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning. — 2019.
6. Choriyev I. va boshq. Oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonlarini sun’iy intellekt algoritmlari asosida boshqarish-2024.
7. Swan K.Cambridge D.Lehman Artificial Intelligence and Higher Education: Opportunities and Challenges. — 2019.
8. Saparova Z.U. Sun’iy intellekt texnologiyalarining boshlang‘ich ta’lim tizimida qo‘llanish istiqbollari- 2025.